

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 413
2019 y. " "



BADIIY TAHLIL ASOSLARI
fanining
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar

Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Toshpo'latov A. SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

Taqrizchilar:

Qobilov U. "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Tohirov S. SamDU "Muntaz adabiyot tarixi" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2019 yil 3 iyul dagi 12 sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.

Kafedra mudiri [signature] Sh. Hasanov

Fanning ishchi o'quv dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 y. 4.04.2019 bayonnoma)da tasdiqlandi.

Fakultet ilmiy kengashi raisi [signature] J. Eltazarov

Fakultet uslubiy kengashi raisi: [signature] M. Abdiyev

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i [signature] B. Aliqulov

KIRISH

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra, "Gumanitar" ta'lim sohalarida o'qitiladigan «Badiiy tahlil asoslari» fani dasturi adabiyotshunoslik va adabiyotda zarur bo'ladigan: XXI asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan badiiy asar haqida profetsional tushunchalarini o'z ichiga olgan bo'limlardan tashkil topgan.

Fanning maqsad va vazifalari

«Badiiy tahlil asoslari» fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni VII semestrda o'rganishadi. Fanining bosh vazifasi, talabalarga "XXI asr o'zbek adabiyoti", "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi", "Modernistik adabiyot", "She'riyat poetikasi" shunga o'xshash qator adabiyot va adabiyotshunoslik fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

Fan bo'yicha talabani malakasiga qo'yiladigan talablar

Talabalar «Badiiy tahlil asoslari» fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim:

- badiiy tahlil turlari va ularni asarga tadbiq etish yo'llarini amalga oshirish;
- badiiy asarni har tomonlama chuqur tahlil yeta bilish;
- jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi tajribalarini milliy adabiyotga qo'llay bilish;
- badiiy tahlil metodlari tarixini anglash;
- barcha turdagi asarlarni tahlil yeta olish.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Mazkur fan o'quv rejasidagi "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" va "Poetika" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Fanni o'rganishda "Akademik litsey va umumta'lim maktab"lar adabiyot kurslarida olingan nazariy va amaliy bilimlar zarur bo'lsa, o'z navbatida bu fandan olingan bilimlar "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" va "Poetika" fanlarining umumiy nazariyasini chuqur o'zlashtirishda ko'prik vazifasini o'taydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy

izlanishga jalb qilish «Badiiy tahlil asoslari» kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va mkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. «Badiiy tahlil asoslari» fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “poinport” dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida vakompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

“Badiiy tahlil asoslari” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

T/ n	Mavzular nomi	Jami soat	Ma`ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta`lim
1.	Kirish. «Badiiy tahlil asoslari» fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.	12	2	8		2
2.	Badiiy tahlil turlari va tarixi	10	2	2	4	2
3	Badiiy tahlil tamoillari, bosqichlari	8	2		4	2
4	Badiiy tahlil metodlari: Struktural metod, biografik va psixoanalitik metod, qiyosiy-tipologik metod va boshqalar	10	2		6	2
5	Badiiy tahlilda adabiy tur ba janrlarning hisobga olinishi	10	2		6	2
6.	Badiiy asarni semiotic usulda tahlil etish	4	2			2
7.	Imonent va kontseptsual tahlil	6	2	2	2	
8.	Tarixiy-madaniy va qiyosiy tahlil	6	2	2	2	
9.	Biografik tahlil metodi	6	2	2	2	
10.	Ilmiy va o'quv tahlili	6	2	2	2	

Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinadi.

Fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni

Ma`ruzada "Badiiy tahlil asoslari" haqida ma`lumot beriladi. Fanining predmeti, maqsadi, vazifalari tushuntiriladi. Adabiyotda badiiyat masalasi keng izohlanadi. Tahlil va talqin tushunchalariga baho beriladi. Fanning tarixi, kelib chiqish jarayoni, tarixiy va zamonaviy taraqqiyotiga izoh beriladi. Fanning ob`ekti, predmeti, vazifalari tushuntiriladi. Muayyan san`at asari yaratilar ekan, uni tushunish va tushuntirishga doimo ehtiyoj bo`lib kelgan. Shu jihatlardan qadimgi Sharqda tahlil fanlari vujudga kelgan. Garbda hermenevtika singari fanlarga Sharqda tafsir kabi tushuntirish ilmlariga keng yo`l ochilgan. Bu fanlar muqaddas manbalar zamirida shakllangan. Keyinchalik badiiy asarlarni o`rganish ehtiyoji ham paydo bo`lib, tahlil, talqin fanlari vujudga kelgan. Fanning maqsadi mavjud badiiy asarlarni chuqur o`rganishdan iboratdir.

Badiiy tahlil asoslari – fani bo‘yicha ma‘ruza mashg‘ulotlarining kalendar tematik rejasi

№	MAVZU	SOAT	Izoh
1	Kirish. "Badiiy tahlil asoslari" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	2	
2	Badiiy tahlil tarixi	2	
3	Badiiy tahlil turlari	2	
4	Struktural tahlil	2	
5	Biografik tahlil	2	
6	Qiyosiy-tarixiy tahlil	2	
7	O`quv- didaktik tahlil	2	
8	Badiiy asar tarkibi, shakily tahlil, mazmuniy tahlil, muammoli va mufassal tahlil	2	
9	Badiiy tahlil usullari, semiotika	2	
10	Immanet va kontekstual tahlil	2	
11	Tahlilda sub`yek va ob`yekt munosabati	2	
12	Badiiy tahlilda adabiy tanqidchi shaxsiyatining o`rni	2	
	JAMI	24	

Amaliy mashg`ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular

Badiiy tahlil turlari haqida ma`lumot beriladi. Badiiy tahlilning maqsadiga ko`ra turlari bo`lgan ilmiy-filologik va o`quv-didaktik tahlil turlarining xususiyatlari o`rganiladi. Tahlilning muallifga, badiiy obraz va matnga tayanib o`rganilishi ko`rib chiqiladi.

Tahlil va talqin tarixi haqida ma`lumot beriladi. Qadimgi Sharqda tahlil va talqin fanlari turli ma`nolarda qo`llanilib kelingan. G`arbdagi germenevtika asosida tahlil fanlari shakllangan bo`lsa, Sharqda tavsirlar asosida u vujudga kelgan.

Badiiy taglil tamoyillari haqida ma`lumot beriladi. Asarni tahlil etishda bir qancha tamoyillarga e`tibor qaratiladi. Xususan, tarixiylik, zamonaviylik, milliylik, falsafiylik va boshqa tamoyillar asosida har qanday turdagi asarlar ko`rib chiqiladi.

Badiiy tahlil bosqichlari haqida ma`lumot beriladi. Badiiy asarni tahlil etish ham muayyan bosqichlar asosida amalga oshiriladi. So`zdan gapgacha, gapdan satr yoki bo`limlargacha, bo`limdan matngacha yaxlid bir butun qurilma sifatida badiiy asar qarab chiqiladi.

Ilmiy va didaktik tahlil haqida ma`lumot berish. Badiiy tahlilning bu ikki shakli filologik va o`quv tahlili deb yuritilib, unda badiiy asarni nazariy va amaliy o`rganish imkoniyatini yaratadi.

Amaliy mashg`ulotlar

№	MAVZU	SOAT	Izoh
1	Badiiy asarning shakl va mazmun unsurlari tahlili	2	
2	Ilmiy va o`quv tahlili	2	
3	Badiiy asar obrazlar olami tahlili	2	
4	Badiiy tahlil turlari: obrazli tahlil ,mufassal tahlil , muammoli tahlil,didaktik tahlil	2	
5	Badiiy tahlil maktablari: Struktural tahlil, tarixiy- madaniy tahlil, sotsiologik tahlil, formal tahlil va b. maktablar	2	
6	Badiiy asarning ichki va tashqi tahlili, immanent va kontekstual tahlil	2	
7	Hozirgi adabiyotshunoslikda tahlil turlari va usullari	2	
8	Adabiy turlar va janrlar tabiati nuqtayi nazaridan tahlil qilish yo`llari	2	
9	Badiiy asarni tahlil qilishda tahlil metodlarining o`rni	2	
	JAMI	18	

Seminar mashg`ulotlari

№	MAVZU	SOAT	Izoh
1	Mumtoz adabiyotda tahlil va talqin (A.Navoiy she`riyati misolida)	2	

2	Badiiy tahlilda zamonaviylik, tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik	2	
3	Badiiy asarni structural tahlili (O'zbek romanlari misolida)	2	
4	Badiiy asarni tur va janr nuqtai nazaridan tahlil etish yo'llari	2	
5	Badiiy asar shakliy-mazmuniy tahlili (yangi davr she'riyati misolida)	2	
6	O'zbek adabiyotida yangicha tahlil yo'nalishlar. Modern asarlar tahlili	2	
7	Badiiy asarning til, uslub jihatdan tahlili	2	
8	Badiiy tahlil bosqichlari	2	
9	Biror bir badiiy asarni mustaqil tahlil qilish	2	
	JAMI	18	

Badiiy tahlilda shakl ba mazmun haqida ma'lumot beriladi. Har qanday predmet vahodisada bo'lgani kabi asarda ham shakl va mazmun bo'ladi. Ular orasidagi o'zaro uygunlikni tahlilda hisobga olish asarni muvaffaqiyatli tahlil etishda qo'l keladi.

Badiiy asarni adabiy tur va janr jihatidan tahlili haqida ma'lumot berish. Badiiy tahlilda adabiy tur va janrlarga xos xususiyatlar hisobga olinishi shart. Busiz asarning tabiati ochilmaydi.

Badiiy tahlil maktablari haqida ma'lumot beriladi. Sharqda tahlil turlarining bir qator usullari shakllangan bo'l-sada, XIX asrning ikkinchi choragida G'arbda tahlilning alohida maktablari faoliyat yurita boshladi. Struktural, biografik, qiyosiy-tarixiy va b. haqida ma'lumot beriladi. Asarlarining bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. Uning "Jannat o'zi qaydadir", "Suv yoqalab", "Piyoda" kabi asarlari tahlil etiladi.

Tahlil bosqichlari haqida ma'lumot berish. Badiiy tahlilning o'ziga xos bosqichlari bo'lib, ularga amal qilish asarni chuqur o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

«Badiiy taxlil asoslari»fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, asarlarnitahliletadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiyasarlarnio`rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib

referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

«Badiiy taxlil asoslari» fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 20 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

t/n	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda)
1.	Badiiy asar kompozitsion tarkibi tahlili .	Asar kompozitsiyasini o'rganish	1 hafta	2
2	Badiiy asar syujet unsurlari tahlili	Asar syujeti elementlarini o'rganish	2 hafta	2
3	Badiiy nutq tahlili	Badiiy asar tilini o'rganish	3 hafta	2
4	Badiiy asar obrazlar olami tahlili	Asar obrazlarini o'rganish	4 hafta	2
5.	Badiiy matn va tahlil turlari	Badiiy matnni ilmiy va o'quv tahlili	5 hafta	2
6.	Asar strukturasi tahlili	Asar strukturasini tahlil etish	6 hafta	2
7	Badiiy asar qiyosiy-tipologik tahlili	Bir necha asarlarni qiyosiy o'rganish	1 hafta	2
8	Asarda qahramonlar nutqi tahlili	Asardagi dialog, monologlarni tahlil etish	2 hafta	2
9	Badiiy asarda zamon va makon tahlili	Asarda vaqt va joylarni tasvirini o'rganish	3 hafta	2

10	Asarning ichki olami tahlili	Asar qahramonlari ruhiyatini tahlil etish	4 hafta	2
11	Asarda shakily unsurlar tahlili	She'riy asar shakl va janrlarini ajratish	5 hafta	2
12	Badiiy asarning mazmuni va mavzusi tahlili	Asar mavzusi haqida ma'lumot to'plash	6 hafta	2
13	Badiiy asarning tili tahlili	Asar badiiy tilini o'rganish	1 hafta	2
14	Asarda peyzaj tasviri tahlili	Asardagi tabiiyat manzaralari tasvirini o'rganish	2 hafta	2
15	She'riy asarda shakily unsurlar tahlili	She'riy asar shakllari haqida ma'lumot to'plash	3 hafta	2
16	Badiiy asar pafosi tahlili	Pafos haqida fikr yuritish	4 hafta	2
17	Asarda ruhiy kechinmalar tahlili	Asar qahramonlari ruhiyatini o'rganish	5 hafta	2
18	Badiiy asar mazmuniy tahlili	Prozaik asarda mazmun masalasini o'rganish	6 hafta	2
19	Asarda ichki va tashqi olam tahlili	Asarning ichki olamini tahlili	1 hafta	2
20	Badiiy asarda sarlavha va epigraflar tahlili	Referat yozish.	2 hafta	2
21	Asarda majoziy obrazlar tahlili	Asarda ramziylikni o'rganish	4 hafta	2
22	Realistik asar tahlili	Realistik metod haqida fikrlash	5 hafta	2
23	Asarda ijtimoiy muhit tahlili	Asarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish	6 hafta	2
24	She'riyatda falsafiylik va falsafiy-ijtimoiy tahlil	She'riyatda falsafiy-ijtimoiy mavzularni o'rganish.	1 hafta	2
25	Asarda zamonaviylik, milliylik va umuinsoniylik xususiyatlari tahlili	Asarda davr va milliylikni tahlil etish.	2 hafta	2
26	Asarda badiiy va ijtimoiy konflikt tahlili	Asar konflikt turlarini o'rganish	3 hafta	2
27	Badiiy asarning g'oyasi, g'oyaviy tahlil,	Mavzu va go'ya haqida fikr yuritish	4 hafta	2

	mavkuraviylik			
28	Asarda tush epizodining tasviri tahlili	Tush epizodining ruhiy tahlildagi o'rnini o'rganish	5 hafta	2
29	Biografik asar va biografik tahlil omillari	Biografik asarlar tahlili	6 hafta	2
30	Badiiy tahlilning nazariy muammolari	Tahlilning ilmiy-nazariy muammolarini o'rganish	1 hafta	2

Dasturning informasion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- adiblar ijodi va ularning asarlarini o'rganishga bag'ishlangan mavzular zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi;

-adiblar asarlarini tahlil qilish obrazlarni o'rganish hamda badiiy poetic jihatdan tahlilga tortishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash, "ish o'yini" va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;

- Shoirlar yaratgan she'rlarni badiiy jihatdan tahlilga tortishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

«Badiiy tahlil asoslari»fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari

«Badiiy tahlil asoslari»fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanningxususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazoratishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va

baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o'tkaziladi va shakli (test) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semistr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin.

Bunday hollarda YaN qayta o'tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Badiiy tahlil asoslari» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

BALL	BAHO	TALABALARNING BILIM DARAJASI
86-100	A`lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
0-54	qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestryakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballariyig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalarning ONda to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

t/n	KO'RSATKICHLAR	ON ballari	
		Maksimal ball	Oraliq bali
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	15	0-15

2	Talabalaning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-10
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-10
	Jami ON ballari	35	35

Talabalarning JNda to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

n	KO`RSATKICHLAR	JN ballari	
		Maksimal ball	Joriy bali
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarning yuritilishi va holati	15	0-15
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-10
	Jami JN ballari	35	35

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklda bo'lib, yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

/n	KO`RSATKICHLAR	YN ballari	
		Maksimal ball	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
	Jami JN ballari	30	30

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshiriladi, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin. Yozma sinov bo'yicha

umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik – T.: “Fan”, 1991-1992 yillar.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T., O'qituvchi. 2005 yil.
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. (O'quv qo'llanma) –T. Kamalak. 2016.
4. Nazarov B., Rasulov A. Va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. –T., Tafakkur qanoti. 2012.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T., Navoiy universiteti. 2018.
6. Jo'raqulov U. Nazariy poetika. – T.: “Sharq”, 2016- yil.
7. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. -T., Turon iqbol. 2011.
8. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligi. Antologiya. –T., O'zME. 2016.
9. O'zbek folklorshunosligi. Antologiya. –T., O'zME. 2017.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni (“Xalq so'zi” gazetasi, 2017. 8-fevral).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to'g'risidagi qarori. “Xalq so'zi”, gazetasi, 2017-yil, 12 aprel.
4. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 16 январь, №11.
5. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: «Yangi asr avlodi», 2006 yil .
6. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. –T.: «G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi», 2018- yil
7. Mustaqillik davri adabiyoti, – T.: G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2006yil.

8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekioston”, 2000 yil.
9. Arastu. Poetika. Axloq kabir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2011- yil.
10. Rahmonov V. She`riy san`atlar. – T.: “Yozuvchi”, 2001 yil.
11. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T., Akademnashr. 2016
12. Normatov U. Ijod sehri. – T., Sharq. 2007.
13. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T.: “Akademnashr”, 2013- yil.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. - T.: “Sharq”, 2004 yil.
14. Jahon adiblari adabiyot haqida. T.: “Sharq”, 2010 yil.
15. Fitrat A. asarlar. 4-jild. - T.: “O`qituvchi”, 2004 yil.
16. Markevshch. G. Osnovnyye problemy nauki o literature. – M., 1980 g.
17. Quronov D. Cho`lpon nasri poetikasi. – T., 2004 yil.
18. Karimov B. A. Qodiriy va germeneytik tafakkur. – T.: “Akademnashr”, 2014.
19. Rasulov A. Badiylik – bezavol yangilik. – T., Sharq. 2007.
20. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. Monografiya. – T., 1983 yil.
21. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o`zbek she`riyati. – T., Fan. 2007.
22. Rahimjonov N. Badiiy so`z estetikasi. – T., G`ulom... ijodiy uyi. 2017.
23. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T., O`qituvchi. 2012.
24. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – T., YANGI NASHR. 2010- yil.
25. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. – T., Mumtoz so`z. 2012 yil.

Elektron manbalar

1. <http://www.literatnre.Uz>
2. <http://w3vw.zivoiiet.uz>
3. <http://www.natHb.uz>
4. <http://www.zivouz.com>
5. <http://www.turonlib.uz>